

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIK TA'LIM KAFEDRASI**

**“OLIY TA'LIM SIFATI – YANGI O'ZBEKISTON
TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING
MUHIM OMILI”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

(2024 yil 10 oktabr)

Buxoro - 2024



“Oliy ta’lim sifati - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” mavzusidagi // respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024. 300 bet

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plamida Respublikamiz va Rossiya olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magistrlar, talabalar maqolalari o’rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo’mitasi

1.	B.B.Ma’murov	–	Institute rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	Sh.N.Murodov	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.f.d.(Phd), dotsent hamrais;
3.	G.R. Akramova	–	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo’lim boshlig’i, p.f.d (DSc), professor rais o’rinbosari.
4.	E.M. Muxtorov	–	BuxDPI dotsenti, p.f.n., a’zo;
5.	S.Q. Qahhorov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
6.	B.Q.Xodjayev	–	BuxDu professori, p.f.n. a’zo;
7.	Sh.Sh.Olimov	–	BuxDu professori, p.f.d. a’zo;
8.	G.V.Izbullayeva	–	BuxDPI professori, p.f.d. a’zo;;
9.	M.Ya.Ergashov	–	BuxDPI professori, k.f.n., a’zo;
10.	G.T.Boymurodova	–	BuxDPI professori, p.f.d. (DSc), a’zo;
11.	Q.F.Abdullayev	–	BuxDPI dotsenti, a’zo;
12.	M.Farmonov		Vobkent tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo’limi boshlig’i a’zo;
12.	S.M.Umarova	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;
13.	A.N.Nusratov	–	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a’zo;

Mas’ul muharrir:

S.M.Umarova pedagogika fanlari bo’yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:

Sh.SH.Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To’plovchi va nashga tayyorlovchi:

A.N.Nusratov

BO'LAJAK MUTAXASSISLAR EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSINING AHAMIYATI

A.A.Fayziyeva

BuxDU Ekologiya va atrof muxit muxofazasi yunalishi, 2 kurs talabasi

Ilmiy rahbar: N.E.Bobomurodova

BuxDU ekologiya va geografiya kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya: mazkur maqolada ajdodlarimizning eng qadimgi bebaho yodgorligi "Avesto" va qadimgi pandnomalar mazmunidagi bo'lajak mutaxassislarda ekologik tafakkurni rivojlantirish masalalari ustoz-shogird tizimi asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: milliy meros, qadriyat, "Avesto", kasbiy tafakkur, ustoz-shogird, faoliyat, barkamol shaxs.

Bo'lajak o'qituvchi shaxsini shakllantirish muammosi har qaysi kishilik jamiyatining ehtiyojlari va talablaridan kelib chiqqan holda hal qilinadi. Shu boisdan hozirgi davrda qabul qilinishi mo'ljallangan yangi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va ushbu qonun asosida qabul qilinadigan me'yoriy xujjatlarda kasb tanlash motivlari, kasbiy tayyorgarlik, kasbiy layoqat va kasbiy mahorat bilan cheklanib qolmaslikni, balki bo'lg'usi pedagogik kadrlarda kasbiy tafakkurni tarkib toptirish mutlaqo zaruriy shart ekanligi ta'kidlanadi.

Ajdodlarimiz merosida ham ustoz-shogird munosabatlari asosida murabbiylik, o'qituvchilik kasbining o'ziga xos etnopedagogik fazilatlari, xususiyatlari, xislatlari, qobiliyatlari ish uslublari mahoratga erishishning yo'llari, shaxslararo muomala madaniyati yuzasidan xalqning mentalitetiga turli ta'limotlar, qarashlar talqini o'z ifodasini topgan.

Haqiqatdan ham buyuk tarixiy-ma'naviy ildizlarga ega bo'lgan davlatchiligimiz an'analarini davom ettirish, demokratik tamoyillarga asoslangan davlatni barpo etish jarayoni, jumladan jamiyat a'zolari hisoblanmish yoshlarni har tomonlama yetuk, barkamol inson bo'lib yetishishlarida ajdodlar an'anasi va o'tmish qadriyatlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Dunyodagi eng qadimiy va noyob bilimlar xazinasi bo'lgan madaniy merosimiz «Avesto»da insoniyat taraqqiyoti, rivoji uchun zarur barcha ilmlar majmuasi, sohalar, qonun-qoidalar, axloqiy-ijtimoiy me'yorlar o'z aksini topgan. Shuningdek, asarda axloqiy barkamollik asosida, «komil inson»ni voyaga yetkazish yo'lida «ezgu fikr», «ezgu kalom», «ezgu amal» g'oyalarining zikr etilishi zardushtiylarning ma'naviy-ma'rifiy olami mohiyatini tashkil etadi.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra har bir mazdoparastning ruhan va xulqan komilligi, uning yaxshilikka yuz tutib, rost yo'lni tanlab, dunyoviy bilimlarni o'rganib, o'z kasbini e'zozlagan holda Ahuramazda farzlarini nechog'liq ado etishi bilan belgilangan. Zero, qo'sh haydab, don ekkan, chorvani parvarishlab, cho'lda bog' yaratgan, yerning zaxini qochirib, sho'rini yuvib ziroat ekkan zardushtiy-ning ravoni pok, xulqi xush, amali chin bo'ladi.

Biz ushbu maqolamizda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy tafakkurini shakllantirishda "Avesto" matnlaridagi ustoz-shogird tizimi hamda ustozlarning burch va mas'uliyatlari haqidagi qarashlar mazmunini yoritishga harakat qildik.

"Avesto"dagi ma'naviy-axloqiy tarbiyaning asosini poktiyat, halol, qalban sof, ma'nan yetuk zardushtiylarni tarbiyalash va voyaga yetkazish masalasi tashkil qilib, bu masalani amalga oshirish esa ustoz va murabbiylar zimmasiga yuklatilgan. «Avesto»da ustozlar haqida so'z ketganda eng avvalo barcha ustozlarning ustozlari, mutlaq iloh Axura Mazda madh etiladi: «sen ashah-

Haqiqat so'zi va Ezgu niyat ta'limoti bilan, senga payvandlik va uns bog'lagan zotlarga ilk murabbiy, ustozsan», yoki «-sen haqiqatda, butun mavjudotga Ashah-Haqiqatning manfaati va durujning ziyonkorligi xususida saboq bergansan, tarbiya qilgansan.[1]

Bulardan ko'rinib turibdiki Yazdon olamni, dunyodagi barcha bilimlarni yaratuvchi, Zardusht esa bu bilimlarni insonlarga yetkazib ularni ma'rifatli kelajakka hidoyat etuvchi hisoblanadi: «-Mazda ta'lim berdi va Zardusht xabar keltirdi», yoki «-Mazda ta'lim berib, Zardusht so'ylagan radlarga olqishlar, xushnudlik va ofarinlar bo'lsin». [1]

Gohlar va Yashtlarda Zardusht Yazdon ishini davom ettirguvchi, insonlarni halollikka, pok axloqqa, komillikka undaguvchi ustozlar rahnamosi sifatida ko'rsatiladi. O'z navbatida Zardusht ta'limotini kelajak avlodga yetkazish, dunyoga ezgulik nurlarini taratish, insoniyatni aniq axloqiy mezonlar asosida barkamollashtirish jamiyatdagi ustozlar va muallimlar zimmasiga yuklatilgan. Ustoz-muallimlar Yazdon farzlarini diliga joy aylagan, o'z faoliyatida qo'llagan, vatanining gullab yashnashi, farovonligi yo'lida halol mehnat qilib, uni dushmanlardan himoya qila oladigan, jasur, pok, bilimdon shogirdlarni tarbiyalashlari shart bo'lgan.

Hozirgi kunda mamlakatimizda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risidagi» qonun, asosini har tomonlama yetuk, barkamol shaxsni tarbiyalash masalasi tashkil qilar ekan, ajdodlarimizning 3000-yil ilgari bu a'molga yetishning yo'llari, qoidalarini ishlab chiqib, davlat va jamiyat tuzilishining negiziga asos qilib qo'yganlari tahsinga sazavordir : «-menga barkamol va dinogoh, vatansevar va anjumanaro, ahil, ezgu andishali, zulmatdan, tanglikdan qutqaruvchi farzandlar bag'ishla. Toki ular manzil, shahar, o'lka va uning nom hamda ovozasini ko'tarsinlar»[1]

«Avesto»da Zardushtiylik dinining asoslari bilan bir qatorda chorvani ko'paytirib, bog'lar yaratish (agronomiya), cho'lga suv chiqazib yerning sho'rini yuvib, zaxini qochirib ishlov berish (melioratsiya), osmon jismlari, ularning harakatini kuzatish va shu asosda kun, yil, vaqt hisobini olib borish (astronomiya), daryolar, tog'lar, viloyatlar, kishvarlar tasnifi (geografiya), tabiatni, atrof-muhitni muhofoza qilish (ekologiya, gigiyena), yurti, xalqni, chorvani dushmanlar, qaroqchilar va devlardan himoya qilish (harbiy bilim), oilaning tuzilishi, oila va jamiyatda erkak-ayol mas'uliyatlari, vazifalari, burchlari (axloqshunoslik, sotsiologiya) kabi bilimlar majmuasi yuksak mahorat bilan bayon qilinganligi obidaning ulkan adabiy-ma'rifiy, qomusiy qimmatga ega ekanligini ko'rsatadi. Shu bilimlarni umumlashtirib, boyitib kelajak avlodga yetkazish ustozlar va muallimlar uchun yuksak mas'uliyat, burch ekanligining ta'kidlanishi diqqatga sazovordir. Ayni paytda shu bilimlarni maktab, madrasalarda o'qitish yo'nalishlari, usullari va uslublarini ishlab chiqish (pedagogika, didaktika) dono muallimlar, ustozlar vazifasi hisoblangan.

Muqqadas kitobda hayotning, taraqqiyotning asosida yaxshilik va yomonlik, nur va zulmat, haqiqat va yolg'on, go'zallik va xunuklik, adolat va nohaqlik kabi hamisha o'zaro kurashda bo'lgan, bir biriga zid tushunchalar va g'oyalarning kurashi talqin qilingan bo'lib, bularning mantiqiy rivoji sifatida yaxshi, dono ustoz va murabbiylar, nodon va johil ustoz, murabbiylarga qarshi qo'yib tasvirlangan. Bunda muallim va mudarrislar o'z ilmini qanchalik bilishi, kasbiga munosobati, fidoiyligi, o'z burchiga ma'suliyatiga qarab yaxshi va yomon ustozlarga ajratilgan. «-Ravshannazar ustoz tolibni ogoh etadi»[1] ya'ni, yaxshi ustoz shogirdlarini tangrini tanimaslik, kufr, insofsizlik, g'arazgo'ylik, nohaqlik, ishyoqmaslik, axloqsizlik, hunarsizlik va bilimsizlik kabi illatlardan hazar qilishga undab, tangriga ishonib uni doim madh etish, haqgo'ylik, mehribonlik, poklik, hallolik, insof va diyonatlilik, adolatlilik, insonparvarlik kabi xislatlarni namoyon etishiga ko'mak berishni o'zining muqqadas burchi hisoblab, shu yo'lda xizmat qilgan.

Ustoz haqida:«-haqiqat nurlari ostida komronlik va shodmonlik manziliga eltuvchidir, sen bu yo'lni ezgulikdan ogoh zotlar uchun bino aylading»[1] deb kuylanishi tahsinga sazovordir.

«Avestoda»gi ustoz va muallimlar ta'rifi, ustoz-shogird munosobatlari talqini, davlat va jamiyat ishlariga bosh-qosh bo'ladigan bo'lajak mutaxassislarning kasbiy tafakkurini rivojlantirish

hozirgi kunda ham o'z ahamiyati va qimmatini yo'qotgani yo'q. Shu asnoda bu g'oya va qarashlarni ta'lim jarayoni, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya yo'nalishiga qo'llash yuksak samara berishi aniq va ravshandir. Bu esa o'z navbatida ajdodlarimizning boy madaniy-ma'naviy-ma'rifiy meroslarini yanada chuqurroq, maxsus o'rganish va tahlil etishni talab qiladi.

Adabiyotlar:

1. "Avesto". Tarixiy-adabiy yodgorlik. A. Mahkam tarjimasi -T.: Sharq nashriyoti- matbaa konserni. 2001
2. Abdullayev K.F. Istoki Zoroastirizma. Monografiya. Chelyabinsk. 2017 -s.80
3. Zoroastriyskiye teksti. -Sankt-Peterburg: «Neva», «Lesnoy sad». 1998.
4. Homidov H. «Avesto» fayzlari. -T.: A.Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti. 2001

BUXORO JADIDCHILIK HARAKATINING OTASI AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK FIKIRLAR TARAQQIYOTI.

O.Sh.Axmadov

BuxDPI dotsenti, p.f.f.d (PhD)

93 654-14-47 olimjonahmadov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqolada Buxoro jadid mutaffakkiri Ahmad Donishning XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida ta'lim-tarbiya muammolariga bag'ishlab yaratilgan manbalar va adabiyotlar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация. В данной статье научно исследованы на основе источников и литературы проблемы образования и воспитания в Бухаре в конце XIX и первой четверти XX века.

Annotation. In the following article, the sources and literature related with the education-upbringing in Bukhara in the end of 19th first quarter of the 20th century is scientifically analyzed.

Kalit so'zlar: manba, manbashunoslik, ta'lim, tarbiya, uzluksiz ta'lim, tadqiqot, maqola, dastur, tizim, an'anaviy ta'lim, maktab, madrasa.

Ключевые слова: источник, источниковедение, образование, воспитание, системное образование, исследование, статья, программа, система, традиционное образование, школа, медресе.

Keywords: source, source studies, education-upbringing, chain education, study, article, program, system, nontraditional education, school, madrasah.

Ahmad Donishning ota-onasi xat-savodli kishilar bo'lgan. U o'zining ilk muallimi sifatida onasini eslaydi. Maktabga bormasdan ilgari onasi huzurida xat - savod chiqaradi. 9 yoshida Qur'onning to'rtinchi birini, «Chor kitob»ning bir kitobini o'qib bitiradi. Maktabga qatnay boshlagach, uning qiziqishi va tasavvur dunyosi yanada kengayadi.

Maktabdan chikishi bilan kaerda qissaxonlik majlisi bo'lgan bo'lsa, o'sha yerga qarab chopgan. Payg'ambarlarning ahvoli, podshohlarga doir vokealarni tinglab zavklangan, ularni qancha eshitsa, yana eshitgisi kelgan. «Podshohlarning saltanat va davlat qurilishlaridagi urush - talashishlari, qanchadan-qancha nohaq qon to'kishlarini, taxt va baxtdan ajralgan shohlarning halok bo'lganlarini dunyoning va dunyodagi xalqlarning qanday o'zgarishlar ustida turganini bilib hayron qolgan¹.

Yosh avlodga kasbiy ta'lim-tarbiya berish Axmad Donish qarashlarining asosiy muhim omil hisoblanadi.

¹ "Ахмад Дониш - XIX асрнинг буюк мутафаккири ва тараққийпарвари" мавзuida Республика илмий -назарий конференция материаллари. - Бухоро-2007.- Б. 79.

Sh.U.Sobirova, S.S.Toxirov Toxirov SHARQ MINIATYURA SAN'ATI ASARLARI NAMUNALARIDAN NUSXA KO'CHIRISH MASHG'ULOTLARINI TASHKIL ETISH	327
M.J.Hojiyev BO'LAJAK MUSIQA O'QITUVCHILARINING KASBIY-KOMPETENSIYASINI RAQAMLI MUSIQIY DASTURLAR VOSITASIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	329
D.I.Mamurova MAKTABLARDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR.....	334
D.I.Tosheva ABDURAUF FITRATNING TA'LIM-TARBIYAGA OID QARASHLARI.....	335
M.H.Bozorova MAHMUDXO'JA BEHBUDIYNING MA'NAVIY-AXLOQIY QARASHLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	339
A.A.Fayziyeva, N.E.Bobomurodova BO'LAJAK MUTAXASSISLAR EKOLOGIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA AJDODLAR MEROSINING AHAMIYATI.....	341
O.Sh.Axmadoy BUXORO JADIDCHILIK HARAKATINING OTASI AHMAD DONISHNING PEDAGOGIK FIKIRLAR TARAQQIYOTI.....	346
N.B.Qo'chqorov SOHIBQIRON AMIR TEMURNING BARKAMOL AVLODNI TARBIYALASH TO'G'RISIDAGI QARASHLARI.....	349
L.V.Ikromova TALABA-YOSHLARNI MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLAR MAZMUNI VOSITASIDA TARBIYALASH TIZIMI.....	351
Z.B.Jalilov, D.H.Xalilova MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIGA RAHBARLIK VA BOSHQARUVIGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR.....	352
S.S.Xasanov, F.G.Nurullayev MUSIQA DARSLARI VOSITASIDA O'QUVCHI YOSHLARNING MILLIY TAFAKKURINI O'STIRISH OMILLARI.....	354
G.S. Xasanova, F.G.Nurullayev UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHI YOSHLARGA MUSIQIY TARBIYANING AHAMIYATI.....	357